Ключевые слова: региональная транспортная система, транспортный потенциал, инфраструктура, анализ, логистика, стратегическое управление, транзитные возможности, международная интеграция, ГЧП, зелёный транспорт.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari, xalqaro transport yo'laklarining kengayishi va mintaqaviy integratsiyaning chuqurlashishi transport tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Transport infratuzilmasi va logistika tizimini rivojlantirish nafaqat ichki bozorning barqaror ishlashini ta'minlaydi, balki mamlakatning xalqaro savdo munosabatlaridagi raqobatbardoshligini oshirishda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, transport salohiyatini baholash, uning kuchli va zaif jihatlari aniqlash hamda istiqbolli imkoniyat va xavf-xatarlarni tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Transport salohiyatini rivojlantirish masalasi mintaqaviy iqtisodiyot, transport iqtisodiyoti, logistika va strategik boshqaruv nazariyalari bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqaviy iqtisodiyot yondashuvi shuni ko'rsatadiki, transport tizimi hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atini belgilaydi, chunki bozorlarga yaqinlik va logistika xarajatlari ishlab chiqarish raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi¹. Infratuzilmaviy yondashuv – avtomobil va temir yo'l tarmoqlari, aeroportlar, logistika markazlari va portlar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan hisoblanadi. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlariga ko'ra, transport infratuzilmasining 1% ga o'sishi YAIM o'sishiga kamida 0,3–0,5 % hissa qo'shishi mumkin ekan². Strategik boshqaruv nuqtayi nazaridan, transport tizimini rivojlantirish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ustuvor omil sifatida qaraladi³.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport infratuzilmasining mintaqaviy rivojlanishga ta'siri masalasi iqtisodiy adabiyotda keng o'rganilgan. Aschauer o'z tadqiqotlarida davlat infratuzilmasiga qilingan sarmoyalar iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir etishini ta'kidlagan. Keyinchalik Krugman tomonidan ilgari surilgan Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi transport aloqalarining markaziy hududlar va periferiyalar o'rtasidagi resurs oqimini taqsimlashdagi rolini ochib berdi. Morgenroth esa transport infratuzilmasi mintaqaviy rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini, ammo bu ta'sir hududiy tafovutlarni kuchaytirishi mumkinligini qayd etgan.

Metodologik yondashuvlar bo'yicha Rosik va hamkorlari transport investitsiyalarining samaradorligini baholashda Cost–Benefit Analysis va Multi-Criteria Analysis usullarini qo'llashni taklif qilgan. Li va hamkorlari CGE modelidan foydalanib, transport infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisoblab chiqqan va ijobiy natijalar olgan. Rashid va Chan esa transport tarmoqlarini kompleks tarmoq nazariyasi orqali tahlil qilib, tugunlar va bog'lanishlarning samarali ishlashi mintaqaviy iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. Tsiotas va hamkorlari Gretsiya misolida interregional commuting oqimlarini o'rganib, transport aloqalari va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatib bergan.

Empirik tadqiqotlar ham bu yo'nalishda sezilarli natijalar bermoqda. Bin Li va hamkorlari Xitoy shaharlaridagi transport tarmoqlari ma'lumotlarini tahlil qilib, shaharlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini transport oqimlari orqali bashorat qilish mumkinligini ko'rsatgan. Mohamed va hamkorlari Misrda yo'l tarmoqlariga qilingan investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining kengayishiga olib kelganini ta'kidlagan. Kuranovič va boshqalar Yevropada yuk tashish tizimini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishini aniqlashgan. Malandri va hamkorlari esa transport tugunlarining zaiflik va barqarorlik ko'rsatkichlarini baholab, transport tizimining bardoshlilikini oshirish bo'yicha metodologiya ishlab chiqqan.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, transport infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Biroq, Krugman va Morgenroth ta'kidlaganidek, bu jarayon hududiy tengsizliklarni ham kuchaytirishi mumkin. Shu sababli Elvarsson va Adey kabi olimlar transport infratuzilmasini loyihalashda land-use noaniqligini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar. Yang va hamkorlari ishlab chiqqan Transport Development Index esa transport tizimining samaradorligi, barqarorligi va xavfsizligini baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollari metodologik va amaliy yondashuvlarning uyg'unlashuvini talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar statistik yilnomalar, transport infratuzilmasi bo'yicha rasmiy hisobotlar va xalqaro tashkilotlar bazalaridan yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil va dinamik qatorlar usuli yordamida qayta ishlanib, regressiya va korrelyatsion tahlil asosida mintaqalar transport tizimi rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri baholandi. Natijalar vizualizatsiya vositalari orqali umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini belgilashda SWOT-tahlildan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv bugungi global iqtisodiy beqarorlik sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. O'zbekistonning transport salohiyatiga oid SWOT-tahlil quyidagi tarkibiy yo'nalishlar asosida amalga oshirildi: kuchli tomonlarni (S) aniqlash; zaif tomonlarni (W) belgilash; istiqbolli imkoniyatlarni (O) baholash hamda ehtimoliy tahdidlarni (T) ko'rsatish. O'zbekiston transport salohiyatining SWOT-tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1 International Transport Forum. *ITF Transport Outlook 2019*. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 208 p.

2 World Bank. *Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth*. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.

3 International Monetary Fund. *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. – Washington, DC: IMF, 2021. – 98 p.

1-jadval. O'zbekiston transport salohiyatining SWOT-tahlili⁴

Strengths - Kuchli tomoni	Weaknesses - Zaif tomoni
Geostrategik joylashuvi, infratuzilma kengligi, davlat siyosati, xalqaro dasturlar. Geostrategik joylashuv: O'zbekiston Yevroosiyo tranzit yo'laklari chorrahasida joylashgan. Avtomobil va temir yo'l tarmoqlarining kengligi (temir yo'l uzunligi 7 ming km dan ziyod). Davlat siyosatida transport-logistika sohasiga ustuvor e'tibor qaratilmoqda. Mintaqalarda transport salohiyatini rivojlantirishga oid maxsus dasturlar qabul qilingan.	Ayrim mintaqalarda infratuzilma holatining talab darajasida emasligi. Zamonaviy logistika markazlari va intermodal tizimlarning yetishmasligi. Avtomobil parklarining katta qismi eskirgan.
Opportunities - Imkoniyatlar	Threats - Xavf-xatarlar
Xitoy–Yevropa “Bir makon, bir yo'l” tashabbusi doirasida yangi yo'laklarni rivojlantirish. Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyati. Elektron logistika va raqamli transport platformalarini joriy etish. Mintaqaviy hamkorlik orqali integratsiyalashgan transport tizimini shakllantirish.	Xalqaro geosiyosiy xavflar va savdo cheklovlari. Markaziy Osiyoda transport yo'laklari bo'yicha raqobatning kuchayishi. Ekologik muammolar va energiya resurslariga yuqori bog'liqlik. Yangilanish jarayonlarida moliyaviy resurslar yetishmasligi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston transport salohiyatining kuchli tomonlarini belgilab beruvchi asosiy omillar qatorida uning geostrategik joylashuvi, infratuzilma tarmoqlarining keng qamrovligi, transport sohasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatorida qo'llab-quvvatlanishi hamda xalqaro tashabbus va dasturlarda faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi⁵. Quyida mazkur omillar ilmiy tahlil asosida tadqiq etilgan.

Geostrategik joylashuvi. O'zbekistonning geografik va geostrategik holati mamlakat transport-logistika tizimi rivojlanishida asosiy ustunlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan davlat sifatida u qo'shni mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikka ega hamda Sharq-G'arb va Shimol-Janub yo'nalishidagi xalqaro transport koridorlariga ulanish imkoniyatiga ega⁶. Bu ustunlik tranzit yuklar hajmini ko'paytirish, transport xizmatlari va logistika markazlari orqali iqtisodiy daromadni oshirish hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi⁷. Yillik tranzit yuk hajmi, temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali tashilgan konteynerlar soni va tranzit xizmatlaridan olinadigan iqtisodiy foyda kabi ko'rsatkichlar geostrategik afzalliklarni baholash mezonlari hisoblanadi. Shu bois geografik joylashuv nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy integratsiya imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Infratuzilma tarmoqlarining keng qamrovligi va ichki salohiyat. O'zbekistonda temir yo'l tarmoqlari, avtomobil yo'llari, aeroportlar hamda ichki logistika infratuzilmasi mavjudligi transport tizimining keng qamrovi tarkibini ta'minlaydi. Bu esa respublikada tovar va yo'lovchi tashish jarayonlarini uzluksiz amalga oshirish imkonini yaratadi. Jahon banki hisobotlarida qayd etilishicha, transport infratuzilmasiga investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, tarmoq samaradorligini oshirish mamlakatning tashqi savdo salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi⁸. Shu nuqtayi nazardan, infratuzilmani modernizatsiya qilish (temir yo'llarni elektrifikatsiya qilish, ikki yo'nalishli liniyalarni joriy etish, zamonaviy logistika markazlarini qurish) va intermodal transport tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Infratuzilma salohiyatini baholash mezonlari sifatida yo'llar sifat indeksi, temir yo'l tarmoqlarining o'tkazuvchanlik quvvati (tonna/kun), logistika markazlari quvvati (TEU yoki tonna hisobida), aeroportlar orqali amalga oshiriladigan tranzit yo'lovchi va yuk tashish hajmlari qo'llaniladi⁹. Shu bilan birga, infratuzilmani barqaror rivojlantirish maqsadida jamoat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo'llash, konsessiya asosida yirik loyihalarni amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish zarur¹⁰.

4 Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

5 World Bank. Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p. International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2021. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 250 p.

6 United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.

7 Asian Development Bank. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Transport Strategy 2030. – Manila: ADB, 2019. – 98 p.

8 World Bank. Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.

9 Asian Development Bank. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Transport Strategy 2030. – Manila: ADB, 2019. – 98 p.

10 International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2021. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 250 p. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.



Davlat siyosati va strategiyalari. O'zbekiston Respublikasida transport va infratuzilma sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2023-yilda qabul qilingan "2035-yilgacha transport tizimini rivojlantirish strategiyasi" mamlakat transport salohiyatini tubdan oshirishga qaratilgan asosiy dasturiy hujjat hisoblanadi¹¹. Mazkur strategiya doirasida yirik magistral yo'llar va temir yo'l tarmoqlarini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini qurish, shuningdek, xalqaro transport yo'laklariga integratsiyalashish maqsad qilingan. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston transport sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar YAIMning taxminan 3-4%ini tashkil etmoqda¹², bu esa mintaqadagi yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi

Infratuzilmani rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, International Transport Forumning 2019-yilgi hisobotida Markaziy Osiyoda, xususan O'zbekistonda logistika yo'laklarini takomillashtirish eksport-import xarajatlarini kamida 15–20%ga kamaytirishi mumkinligi qayd etilgan¹³.

O'zbekistonda transport sohasidagi loyihalarning katta qismi davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgani sohaning uzoq muddatli barqarorligi uchun muhim omildir. Sohani rivojlantirishning muhim yo'nalishi - me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish hisoblanadi. Xususan, bir tomonlama ruxsatnoma tizimini joriy etish, elektron bojxona amaliyotlarini rivojlantirish, raqamli logistika platformalarini ishga tushirish kabi chora-tadbirlar xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi¹⁴. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy haydovchilik hamda logistika kadrlarini tayyorlash dasturlari amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish 2030-yilga qadar logistika samaradorligini 30%ga oshirishi mumkin¹⁵. Umuman, O'zbekistonning transport siyosatlar va strategiyalari sohani barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Milliy strategiyalar va xalqaro dasturlar integratsiyasi investitsiyalar jalb etish, logistika xarajatlarini kamaytirish va mamlakatning tranzit salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Xalqaro dasturlar va hamkorlik. O'zbekiston transport va logistika sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali huquqiy, texnik va moliyaviy yordamdan foydalanish imkoniyatiga ega. Mintaqaviy ahamiyatga ega yirik loyihalar - transport koridorlari va logistik xablar rivojlanishi, shuningdek, ko'p tomonlama moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, YEBRR kabi) orqali mablag'larni jalb etish imkoniyatlari mavjud. Masalan, ITF-OECD tahlillarida ko'rsatilishicha, tranzit yo'laklarini takomillashtirish va logistik xablarni rivojlantirish O'zbekistonning tashqi savdo xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi hamda mamlakatning geostrategik ahamiyatini oshiradi¹⁶.

BMT YEEK (UNECE) hisobotlarida ta'kidlanishicha, yirik infratuzilma loyihalarini kredit mablag'lari hisobiga moliyalashtirish va mintaqaviy savdo-tranzit kelishuvlarini kengaytirish mamlakat iqtisodiyoti uchun uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi¹⁷. Quyidagi 2-jadvalda O'zbekiston ishtirok etayotgan xalqaro transport-logistika dasturlari, uning asosiy yo'nalishlari va O'zbekiston uchun uning ahamiyati keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston ishtirok etayotgan xalqaro transport-logistika dasturlari¹⁸

	Dastur / Tashabbus	Asosiy yo'nalishlar	O'zbekiston uchun ahamiyati	Manba
1.	"Bir makon, bir yo'l" (BRI, Xitoy tashabbusi)	Transit'a yo'llar, temir yo'l va logistika xablari qurilishi	Yevroosiyo transport yo'laklariga integratsiya, tranzit daromadlarini oshirish	[World Bank, 2023]
2.	TRACECA (Yevropa–Qavkaz–Osiyo transport koridori)	Yo'l, temir yo'l va port infratuzilma-sini rivojlantirish	Yevropa va Qora dengizga chiqish imkoniyatlari	[UNECE, 2023]

11 Building Blocks for Integrated Transport and Logistics Development Policy Paper: Uzbekistan Strategy for the Development of the Transport System until 2035. — Tashkent: World Bank, 2023. — 45 b.

12 Building Blocks for Integrated Transport and Logistics Development Policy Paper: Uzbekistan Strategy for the Development of the Transport System until 2035. — Tashkent: World Bank, 2023. — 45 b.

13 Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia / ITF-OECD. — Paris: OECD/ITF, 2019. — № 71, 78 b.

14 Responsible Business Conduct for Sustainable Infrastructure in Kazakhstan, Mongolia and Uzbekistan / OECD. - Paris: OECD, 2025. - 80 b.

15 Responsible Business Conduct for Sustainable Infrastructure in Kazakhstan, Mongolia and Uzbekistan / OECD. - Paris: OECD, 2025. 80 b.

16 Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia / ITF-OECD. Paris: OECD/ITF, 2019. - № 71, 78 b.

17 UNECE. Transport Trends and Economics 2022–2023. Geneva: United Nations, 2023. - 95 b.

18 Jadval Jahon banki, ITF-OECD, OECD, UNECE va YEBRR hisobotlari asosida tuzilgan.



3.	Turkiy davlat-lar tashkiloti (TDT) Transport platformasi	Mintaqaviy yo'l va temir yo'l loyihalari, bojxona va standartlashtirish	Turkiy mamlakatlar o'rtasida tranzit hajmini oshirish	[OECD, 2025]
4.	SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti) infratuzilma loyihalari	Chegara orqali transport va savdo yo'laklari	Xitoy va Rossiya bozorlariga chiqish imkoniyatlari	[ITF, 2019]
5.	EBRD va YEI dasturlari	Barqaror transport infratuzilmasini moliyalashtirish	Zamonaviy yo'l va temir yo'l tarmoqlarini yangilash	[EBRD, 2023]
6.	BMT YEEK (UNECE) "Yevropa-Osiyo transport yo'laklari" tashabbusi	Xalqaro yo'l va temir yo'l tarmoqlarini uyg'unlashtirish	Xalqaro standartlarga moslashuv, tranzitni optimallashtirish	[UNECE, 2023]

Umuman olganda, yuqorida tadqiq etilgan yo'nalishlardan iborat kuchli tomonlar O'zbekistonning transport salohiyatini rivojlantirishda kompleks ustunliklar tizimini shakllantiradi. Ular nafaqat tranzit va infratuzilmani, balki iqtisodiy o'sish, inson kapitali va texnologik rivojlanishni ham qamrab oladi.

Biz tadqiqotimizda SWOT-tahlil yordamida mamlakat transport tizimining istiqbolli strategik yo'nalishlarini ham belgiladik. V.L. Kvint tomonidan asoslangan umumiy strategiya nazariyasiga ko'ra, har bir hududning transport salohiyati milliy iqtisodiy modelning uzviy qismi sifatida qaralishi lozim¹⁹. Logistika konsepsiyasi – tovarlar, xizmatlar va resurslarning samarali harakatini ta'minlash orqali transport tizimi iqtisodiy samaradorlik va bozor raqobatbardoshligini oshiradi²⁰. Bu yerda zamonaviy logistika markazlari va raqamli platformalar muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston transport salohiyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari quyidagicha ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston transport salohiyatini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari

19 Kvint V.L. Strategiya i strategicheskoye upravleniye. – M.: Nauka, 2012. – 415 s.

20 World Bank. Connecting to Compete 2020: Trade Logistics in the Global Economy. The Logistics Performance Index (LPI) and Its Indicators. – Washington, DC: World Bank, 2020.



O'zbekiston transport salohiyati milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va xalqaro integratsiya jarayonlarini jadallashtirishda strategik ahamiyatga egadir²¹. SWOT-tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud kuchli jihatlar va imkoniyatlardan samarali foydalanilsa, mamlakat qisqa muddatda mintaqaviy logistika markaziga aylanishi mumkin. Biroq, mavjud kamchiliklar va xavf-xatarlar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, transport tizimining rivojlanish sur'atlari cheklanib qolishi mumkin²². Shu bois uzoq muddatli kompleks strategiya ishlab chiqish va uni amalga oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

O'zbekiston transport salohiyatini zaif tomonlari ham tahlil etildi. O'zbekiston mintaqalarida transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi mutanosib emasligi mamlakatning logistika tizimidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayrim hududlarda yo'l tarmoqlari, temiryo'l va havo transporti obyektlari nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lsa, boshqa mintaqalarda esa ularning salohiyati yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarida nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi²³. Shu bilan birga, zamonaviy logistika markazlari, omborxonalar va intermodal tashish tizimlarining yetishmasligi tovar aylanishi va tranzit jarayonlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Xususan, intermodal tizimning rivojlanmaganligi transport turlari o'rtasidagi integratsiyani susaytirib, tranzit vaqti va xarajatlarini ko'paytirmoqda²⁴. Bundan tashqari, mavjud transport parklarining katta qismi texnik va ekspluatatsion jihatdan eskirgan. Bu holat nafaqat xizmat ko'rsatish samaradorligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki ekologik talablarga javob berish darajasini ham pasaytiradi²⁵. Shu sababli, transport vositalarini yangilash, yuqori texnologiyalar asosida yaratilgan zamonaviy parkni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston mintaqalari transport salohiyatini rivojlantirish jarayonida qator istiqbolli imkoniyatlarga ega. Ular mamlakatning geostrategik joylashuvi va xalqaro integratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Birinchi navbatda, Xitoy-Yevropa yo'nalishi doirasida amalga oshirilayotgan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi O'zbekiston uchun xalqaro tranzit yo'laklarini kengaytirish va yuk tashishda transkontinental logistika zanjirlariga integratsiyalanish imkonini yaratadi²⁶.

Ikkinchidan, Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish masalasi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi savdo yo'nalishlarini ochib berish bilan birga, mintaqaviy savdo aylanmasini oshirishga xizmat qiladi. UNECE ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan transport yo'laklarini rivojlantirish Markaziy Osiyo davlatlari tashqi savdosining 10–15 %gacha o'sishiga turtki bo'lishi mumkin ekan²⁷.

Uchinchidan, elektron logistika platformalarini joriy etish transport xizmatlari samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. ITF hisobotlarida qayd etilganidek, raqamli yechimlardan foydalangan holda yo'lovchi va yuk tashish jarayonlari 15–20 %gacha arzonlashishi va logistika vaqti sezilarli qisqarishi mumkin²⁸.

To'rtinchidan, mintaqaviy hamkorlik va integratsiyalashgan transport tizimini shakllantirish O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tranzit markaz sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. ADB hisobotlarida qayd etilishicha, CAREC (Central Asia Regional Economic Cooperation) yo'nalishlari bo'yicha transport xizmatlarini rivojlantirish 2030-yilgacha mintaqaviy YAIMning 2,5 %ga o'sishiga xizmat qilishi mumkin²⁹.

O'zbekiston mintaqalari transport salohiyatini rivojlantirish jarayonida qator xavf-xatarlar mavjud bo'lib, ular tizim samaradorligi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Birinchidan, xalqaro geosiyosiy muammolar va savdo siyosatining o'zgarishi tranzit yo'laklari barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, sanksiyalar, mintaqaviy nizolar va geosiyosiy tortishuvlar transport oqimlari uzluksizligini cheklashi ehtimoli katta³⁰. Ikkinchidan, moliyaviy va tabiiy resurslar yetishmasligi infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, transport infratuzilmasini takomillashtirishda moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi³¹. Uchinchidan, mintaqadagi transport yo'laklari bo'yicha raqobatning kuchayishi ham xavf omillaridan biri sanaladi. Xitoy-Yevropa yo'nalishi doirasida Qozog'iston, Ozarbayjon va Rossiya kabi mamlakatlar raqobatbardosh infratuzilma orqali tranzit oqimlarini jalb etishga harakat qilmoqda³². To'rtinchidan, ekologik muammolar hamda

21 International Transport Forum (ITF). Transport Outlook 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019.

22 United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Digital Platforms and Logistics Hubs in Eurasia. – Geneva: UNECE, 2021.

23 World Bank. Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.

24 United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.

25 International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 208 p.

26 World Bank. Logistics Performance Index 2023: Connecting to Compete. – Washington, DC: World Bank, 2023. – 95 p.

27 United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Trends and Economics 2022. – Geneva: United Nations, 2022. – 120 p.

28 International Transport Forum (ITF). ITF Transport Outlook 2021. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 200 p.

29 Asian Development Bank (ADB). CAREC Transport Strategy 2030. – Manila: ADB, 2020. – 88 p.

30 United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.

31 World Bank. Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.

32 International Transport Forum. ITF Transport Outlook 2019. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 208 p.



transport sohasining yuqori darajada energiya resurslariga bog'liqligi barqaror rivojlanish yo'lida jiddiy xavf hisoblanadi. ITF hisobotlarida ta'kidlanganidek, agar "yashil transport" tamoyillari keng joriy etilmasa, 2030-yilga borib transport sohasi Markaziy Osiyodagi uglerod chiqindilarining eng yirik manbalari qatorida qolishi mumkin³³. Shuning uchun, xavf-xatarlarni oldindan baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan strategik choralar ishlab chiqish mamlakatning uzoq muddatli transport strategiyasida ustuvor vazifalardan biri bo'lishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston mintaqalari transport salohiyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha quyidagi ilmiy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Xalqaro transport yo'laklari barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston mintaqaviy va global transport tashkilotlari (ITF, UNECE) bilan hamkorlikni kuchaytirishi zarur. Shuningdek, turli yo'nalishlar bo'yicha diversifikatsiya qilingan tranzit marshrutlarini shakllantirish geosiyosiy xavflarni pasaytiradi³⁴.

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, OTB, YETTB) bilan hamkorlikda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi³⁵. Bu moliyaviy xavflarni qisqartiradi va modernizatsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

Mintaqada transport yo'laklari bo'yicha raqobat kuchayib borayotgan sharoitda O'zbekiston transport xizmatlari sifatini oshirish va logistika xizmatlarini raqamlashtirish orqali tranzit oqimlarini jalb qilishi mumkin. Xususan, elektron logistika platformalarini joriy etish raqobat ustunligini ta'minlaydi.

Transport sohasida "yashil texnologiyalar"ni joriy etish, energiya tejamkor vositalardan foydalanish va uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiq islohotlarni amalga oshirish zarur. ITF tavsiyalariga ko'ra, 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini 20–25%ga qisqartirish imkoniyati mavjud³⁶.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan amaliy chora-tadbirlar xavf-xatarlarni samarali boshqarish va O'zbekiston transport tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xavflarni oldindan baholash va ularni kamaytirishga yo'naltirilgan kompleks strategiyalar iqtisodiy o'sish va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asian Development Bank (ADB). *CAREC Transport Strategy 2030*. – Manila: ADB, 2020. – 88 p.
2. Asian Development Bank. *Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC) Transport Strategy 2030*. – Manila: ADB, 2019. – 98 p.
3. Building Blocks for Integrated Transport and Logistics Development Policy Paper: Uzbekistan Strategy for the Development of the Transport System until 2035. — Tashkent: World Bank, 2023. — 45 6.
4. Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia / ITF-OECD. — Paris: OECD/ITF, 2019. — № 71, 78 6.
5. International Monetary Fund. *Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia*. – Washington, DC: IMF, 2021. – 98 p.
6. International Transport Forum (ITF). *Transport Outlook 2019*. – Paris: OECD Publishing, 2019.
7. International Transport Forum. *Decarbonising Transport in Emerging Economies: Case Studies of Mexico, India, Argentina and Azerbaijan*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 142 p.
8. International Transport Forum. *ITF Transport Outlook 2021*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 250 p.
9. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity*. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.
10. Responsible Business Conduct for Sustainable Infrastructure in Kazakhstan, Mongolia and Uzbekistan / OECD. - Paris: OECD, 2025. - 80 6.
11. Transport and Logistics for Growth. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.
12. UNECE. *Transport Trends and Economics 2022–2023*. Geneva: United Nations, 2023. - 95 6.
13. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Digital Platforms and Logistics Hubs in Eurasia*. – Geneva: UNECE, 2021.
14. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Transport Trends and Economics 2022*. – Geneva: United Nations, 2022. – 120 p.
15. World Bank. *Connecting to Compete 2020: Trade Logistics in the Global Economy. The Logistics Performance Index (LPI) and Its Indicators*. – Washington, DC: World Bank, 2020.
16. World Bank. *Logistics Performance Index 2023: Connecting to Compete*. – Washington, DC: World Bank, 2023. – 95 p.
33. International Transport Forum. *Decarbonising Transport in Emerging Economies: Case Studies of Mexico, India, Argentina and Azerbaijan*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 142 p.
34. United Nations Economic Commission for Europe (UNECE). *Transport Trends and Economics 2021: Towards Sustainable Inland Transport Connectivity*. – Geneva: United Nations, 2021. – 156 p.
35. World Bank. *Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth*. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.
36. International Transport Forum. *Decarbonising Transport in Emerging Economies: Case Studies of Mexico, India, Argentina and Azerbaijan*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 142 p.



17. World Bank. *Uzbekistan: Modernizing Transport and Logistics for Growth*. – Washington, DC: World Bank Group, 2020. – 112 p.
18. Жадвал Жаҳон банки, ITF-OECD, OECD, UNECE ва ЕБПР ҳисоботлари асосида тузилган.
19. Квинт В.Л. Стратегия и стратегическое управление. – М.: Наука, 2012. – 415 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>